

O'YIN FAOLIYATI HAQIDA OLIMLARNING ILMIIY-NAZARIY QARASHLARI

Turapova Ra'no Barat qizi

Termiz davlat universiteti 2-kurs magistranti, Termiz, O'zbekiston

e-mail:turapova@terdupi.uz

***Annotatsiya.** Ushbu maqolada har bir pedagog yoki ota-ona o'yin faoliyatining kelib chiqish tarixi va olimlarning ilmiy qarashlari haqida muhim ma'lumotlar ega bo'lishi mumkin. Bundan tashqari, maktabgacha yoshdagi bolalarda o'yinli texnologiyalar yordamida ta'lim samaradorligini oshirish kabi masalalar o'z ifodasini topgan.*

***Kalit so'zlar:** o'yin faoliyati, ta'lim-tarbiya, maktabgacha ta'lim, kelajak, rivojlanish, shart-sharoit, dolzarb masala, qiziqish, yosh avlod, imkoniyat, qarorlar, kamchiliklar, muammolar.*

***Annotation.**In this article, any educator or parent can have important information about the history of the origin of play activities and the scientific views of scientists. In addition, issues such as increasing the effectiveness of education through the use of play technologies in preschool children have been addressed.*

***Key words:** play activities, education, preschool education, future, development, conditions, current issue, interest, young generation, opportunity, decisions, shortcomings, problems.*

Har bir jamiyatning rivoj topishi va ravnaqida uning kelajak poydevori bo'lgan o'sib kelayotgan yosh avlodga yaratayotgan imkoniyatlari, shart-sharoitlari asos bo'ladi. Bizning mamlakatimizda ham yosh avlodning o'sib unishi uchun zamonaviy barcha talablarga javob beradigan qiziqish va intilishlarini qondiradigan shart-sharoitlarni yaratish bugungi kunning dolzarb masalasi bo'lib kelmoqda. Ta'lim-tarbiya tizimini tubdan isloh qilishga va shu orqali yosh avlodni har tamonlama barkamol shaxs sifatida rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilib kelinmoqda. Bu borada maktabgacha ta'lim tizimida bulayotgan o'zgarishlarni sanab o'tish jarayonida, shuni aytib o'tish joizki yurtboshimiz tomonidan chiqarilayotgan turli farmon, qarorlar bu sohadagi kamchiliklarni bartaraf etishga asos bo'lib xizmat qilmoqda. 2018 yil 30 sentabrdagi "Maktabgacha ta'lim tizimini boshqarishni takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi PQ-3955-son qaror, 2019 yil 14 dekabrda "Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida" gi O'zbekiston Respublikasi qonuni ham shu sohadagi munosabatlarni tartibga solishda innovatsion ta'lim tarbiya jarayonini tashkil etishdan iborat. Shu bilan birga 2018-yilda ishlab chiqilgan "Ilk qadam" davlat o'quv dasturi "O'zbekiston Respublikasining ilk va maktabgacha yoshdagi bolalarni rivojlantirish borasidagi Davlat talablari" ga muvofiq ishlab chiqilgan me'yoriy –huquqiy hujjat bo'lib,

unda maktabgacha ta'lim muassasasining maqsad va vazifalari, o'quv-tarbiyaviy faoliyatning asosiy g'oyalari, maktabgacha yoshdagi bolalarni ta'limining keying bosqichiga o'tishidagi asosiy kompetensiyalar belgilab berilgan.¹

Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarga ta'lim tarbiya berish jarayonida kompetensiyaviy yondoshuv o'sib kelayotgan yosh avlodni har tamomlami hayotiy muhim ko'nikmalarini, axloqiy me'yoriy qadriyatlarni o'zlashtirish, ijtimoiy munosabatlarini hamda insonlar bilan muloqot qilish, turli faoliyat xususiyatlarini shakllantirishga tayyorlashni ko'zda tutadi. Chunonchi, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-sonli Farmoni "2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasining rivojlanishining beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi"da nazarda tutilgan aholi, ayniqsa yoshlar tarbiyasi bilan bog'liq vazifalarni samarali amalga oshirish, ularni tinch –osoyishta hayot uchun eng zarur tayanch kompetensiyalar bilan ta'minlashni nazarda tutilgan. Ma'naviy tarbiyaning ilmiy asoslangan indikatorlarini ishlab chiqish"² kabi jihatlarga ham e'tibor qaratilib kelinmoqda.

Maktabgacha ta'lim tashkilotida bolalarni o'yin orqali kompetensiyalarini rivojlantirish ko'p qirrali jarayon bo'lib, o'yin faoliyati oddiy harakatlaridan tortib, psixik jarayonlari elementlaridan eng murakkabigacha ta'sir etadi. Bolalar o'yinlarda ichki kechinmalarini aks ettirishadi. Bu esa ularni o'yinda mustaqil bo'lishga o'rgatadi. Maktabgacha yoshdagi bolalarning o'zaro tengdoshlari bilan muloqoti asosan o'yin jarayonida yuzaga keladi. Birga o'ynab bolalar bir-birlarini hurmat qilishini, boshqa bolalarni harakati va xoxishlarini inobatga olishni, o'yin imkoniyatlaridan kelib chiqib birga rejalar tuzishini o'rganishadi. O'yin kompetensiyasini rivojlantirish orqali erta bolalik davrida kattalar bolani atrofdagi haqiqat bilan tanishtirishadi, o'zaro aloqa jarayonida unga harakatlar, narsalar va odamlar bilan munosabatlar to'g'risida ma'lum tajriba va bilimlar berishadi. Maktabgacha yoshdagi bola narsalarga teginish, sinash, boshdan kechirish orqali tajribalarga ega bo'ladi. O'yin bolaning "o'zini" eng kuchli sohasidir: o'zini namoyon qilish, o'zini-o'zi belgilash, o'zini sinash, o'zini realibitatsiya qilish, o'zini anglash imkoninni beradi. O'yinlar orqali bola hamma odamlarga ishonishni, nima qabul qilishni va atrofdagi dunyoda nimani rad etish kerakligini o'rganadi. [16.4]

Bolalar hayotida o'yin ko'p qirrali va murakkab jarayon bo'lib, qadimdan bolalar o'yinlarini o'rganishga, boyitishga e'tibor qaratilib kelingan. O'yinlarning o'rganish tarixi uzoq davrlarga borib taqaladi. O'yinlarning nomlanishi va ularning o'z yonalishi tarkibi to'g'risida turk olimi Mahmud Qoshqariy o'zini "Devonu lug'atit

¹ "Ilk qadam" davlat o'quv-dasturi 2018 yil

² Vazirlar Maxkamasining 2019-yil 31-dekabrda 1059 son " Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori

turk” asarida qimmatli ma’lumotlar keltiradi. Qashqariy keltirgan ma’lumotlar o’yinlarning tarixiy zaminiga va asosiga ega ekanligini ko’rsatadi. Darhaqiqat o’yin nomlari va o’yinlarning o’ynalish tarkibi avlod-dan-avlodga o’tib kelgan. Zero, o’yinlar xalq madaniyatining ajralmas bir bo’lagidir. “Devonu lug’atit turk”da anchagina o’yinlarning nomlari, ayrim o’yinlarning o’ynalish tartibi batafsil keltirilgan bo’lib hozirgi kunda bolalar sevib o’ynayotgan “Yong’oq”, “Poylama”, “Chavgon” “Ko’chirma o’yin”(hozirgi “mak-mak”) haqida bir necha ma’lumotlar berib o’tilgan. Buyuk allomalarimiz Alisher Navoiy, Zahriddin Muhammad Boburlarning asarlarida “Chavgon” o’yini haqida ma’lumotlar keltirilgan. Firdavsiyning “Shoxnomasi” da esa “Chavgon”(chavgon cho’pi shu nom bilan atalgan bo’lib, fors-tojikcha so’zdir, uning ma’nosi “uchi egri uzun tayoq” degani) haqida voqea bayon qilingan. Ulug’ bobokolonimiz Amir Temur davrida ham bolalarning o’yin jarayoniga alohida e’tibor qaratilgan bo’lib o’g’il bolalarga ot minish, chavandozlik 3 yoshdan o’rgatilganligi ma’lum. Sohibquron Amir Temur o’z “Tuzuklari”da shunday deydi: “Qo’shin tarkibiga navkarlarni olishda uch qoidaga amal qilindi: birinchisi- sog’lom va baquvvat bo’lishi, ikkinchisi- qilichdan mohirona foydalanishi, uchinchisi- aql-zakovatiga va barkamolligiga”. Ulug’ munajjim va davlat arbobi Mirzo Ulug’bekning pedagogik qarashlari diqqatga sazovordir. Uning “Farzandingiz sog’lom va baquvvat bo’lib o’sishini istasangiz, uni kichik yoshdan jismoniy mashqlar bilan shug’ullantiring” degan so’zlarining ahamiyati beqiyosdir. Tibbiyot olamining sultoni Abu Ali ibn Sino o’zining “Tib qonunlari” asarida “Jismoniy mashqlar bilan muntazam ravishda shug’ullangan odam hech qanday davolashga muhtoj bo’lmadi” deb aytgan.[26.4]. Buyuk allomalarimiz Abu Nasr Farobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Yusuf Hos Hojib, Ahmad Yugnakiylar ham o’z asarlarida xalqimizga xos bo’lgan farzand tarbiyasi ustida fikr yuritganlar.

Chet el pedagog olimlaridan P.F.Lesgaft, K.D.Ushinskiy tomonidan o’yin nazariyasi ishlab chiqilgan. Ushinskiy bolalar faoliyatida o’yinning mehnat jarayoni asosida paydo bo’lganligini va uni yosh avlodni mehnat faoliyatiga tayyorlashdagi roli, o’yinning bola shaxsini shakllantirishdagi ahamiyatini asoslab berdi. U “bolalar o’yinlari ko’p asrlik tarixga ega. Insonning o’zi tomonidan ishlab chiqilgan qudratli tarbiyaviy vosita va shuning uchun ham unda inson tabiatining haqiqiy ehtiyoji ifodalangan” -deb ta’kidlaydi.[21.313] Bundan tashqari A.S.Makarenko, D.B.Elkonin, N.L.Figurin, E.A.Arkinlarning g’oyalari hozirgi zamon bolalar o’yinlar nazariyasi uchun asos bo’lib kelgan. Buyuk psixolog D.V.Elkonin o’yinning kelib chiqishiga oid yangi g’oyani ilgari suradi. Jamiyatning dastlabki taraqqiyotidayoq bolalarning kattalar hayoti va mehnatida ishtirok etishlari, bolalarni mehnat qilishlari uchun qulay o’yinchoq-mehnat qurollari ishlab chiqilgan. O’yinchoq-qurollar paydo bo’lishi natijasida rolli

o'yinlar paydo bo'ldi. D.V.Elkonin o'z tadqiqotida rolli o'yinning syujeti bilan bir qatorda, uning mazmuni ham mavjud ekanligini yozadi. Uning fikricha, o'yinda bola kattalar faoliyatining asosiy jihatini aniqroq aks ettirishi o'yinning mazmunini tashkil qiladi va kattalar mehnatida ishtirok etishi orqali bolada mehnat qilishga intilish hissini uyg'otish zarurligi g'oyasini ilgari surgan. Maktabgacha ta'limda o'yin nazariyasi ijtimoiy faoliyat hisoblanib, mehnatning tarixiy rivojlanish jarayonida paydo bo'ladi. Go'dakning bir yoshgacha davrdagi psixologik xususiyatlarini o'rganish bo'yicha qator tadqiqotlar mavjud. Bular N.L.Figurin, M.P.Denisova, A.Vallon, D.B.Elkonin, M.Yu.Kistyakovskiy, E.A.Arkin, S.Fayans, Sh.Byuler, F.I.Fradkinalarning asarlari alohida ahamiyatga molikdir. O'yin doimo hayotni aks ettiradi. Shuning uchun uning mazmuni ijtimoiy voqelikda o'zgarib turadi. O'yin maqsadga qaratilgan o'ylangan jarayondir. O'yin jarayoni asosida o'quv faoliyati rivojlanadi. Bola yoshligida qancha ko'p o'ynasa atrof-olam haqida shuncha tushunchalarga ega bo'ladi, o'yin jarayonida bolada dastlabki kompetensiyalar rivojlanadi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning mehnat faoliyati o'yin bilan chambarchas bog'liqdir. Bu jarayonda bolada muhim bo'lgan kompetensiyasilar rivojlanadi: bola nima qilish kerakligini, nima uchun qanday qilish kerakligini tushunish, topshiriqlarni bajarishda diqqat bilan kuzdan kechirib chiqish, shartlarni bajarilishini taxlil qilishni o'rganadi. Bolalar o'yinlari o'zining xilma-xilligi, rang-barangligi bilan ajralib turadi. O'yinlar o'z mazmuni va tashkil etilishi bolalarga ta'sir ko'rsatish darajasi, vositalarining turlari hamda kelib chiqishiga ko'ra xilma-xildir.

Maktabgacha yoshdagi bolalar o'yinlarini D.B.Elkonin o'z navbatida quyidagicha tasniflagan:

- Maishiy mavzu syujetiga oid o'yinlar;
- Ishlab chiqarish syujetiga oid o'yinlar;
- Ijtimoiy-siyosiy syujetli o'yinlar.

Bola maktabgacha ta'lim tashkilotiga kelgan kundan ularning o'yinlari asosan faqat oilaviy turmushdagi voqealarni aks ettirsa, maktabgacha ta'lim tashkilotida rivojlantiruvchi markazlarda bilim olish, sayrga chiqish, tabiatni kuzatish natijasida o'yinlarning turlari ko'payib boradi. Mana shu o'yinlar orqali bog'cha, oshxonada turli tayyorlanadigan taomlar, hayvonot bog'ida hayvonlar, bog' va polizda turli meva va sabzavotlar, turli xil kasblar haqida bilim ko'nikma hosil bo'ladi. Maktabgacha ta'lim tashkilotida bolalar o'yin jarayonida o'z xulqini boshqarish ko'nikmalarini tarkib toptirishga bog'liq psixologik muammoni o'rgangan. O'yin jarayonida alohida harakatlar emas balki, murakkab harakatlar (masalan, ish, xat, rasmlar) amalga oshiradi. O'yin ham har bir faoliyat singari jamoatchilik xususiyatiga ega, shuning uchun ham bu odamlarning tarixiy yashash sharoitida

o'zgarishlar bilan o'zgaradi, takomillashib boradi. Maktabgacha yoshdagi bolalarning o'yin kompetensiyalarini rivojlantirish bugungi kunda muhim jarayon bo'lib o'yinda bola shaxsiyatining barcha jihatlari shakllanadi, uning ruhiyatida sezilarli o'zgarishlar ro'y beradi, rivojlanishning yangi, yuqori bosqichiga o'tishga tayyorlanadi. Bu jihatlar esa maktabgacha yoshdagi bolalarning yetakchi faoliyati deb hisoblanadigan o'yinning ulkan ta'lim salohiyatini belgilaydi. Shunda ekan, o'yin bu bolalar haqiqati tomonidan ijodiy aks ettirish shakli bo'lsa kengaytirilgan shaklda o'yin jamoaviy yetakchi faoliyat bo'lib bola hayotini tashkil etishda katta o'rin egallaydi. Yuqoridagilardan kelib chiqib, bugungi kunda maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarning o'yin kompetensiyalarini rivojlantirishga bo'lgan talab va e'tibor kuchaymoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 30 sentyabrdagi PF-5198-son "Maktabgacha ta'lim tizimi boshqaruvini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari ro'g'risida"gi Farmoni.

2.O'zbekiston Respublikasining ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan davlat talablari-2018 yil. Registr.№ 3032 03.07.201

3.O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 22-dekabrda "Maktabgacha ta'lim va tarbiyaning davlat standartini tasdiqlash to'g'risida"gi 802-son Qarori

4."Ilk qadam" davlat o'quv-dasturi 2018 yil.

5.Abdullayeva M.A "O'yin mashg'ulotlarini boshqarish orqali maktabgacha va boshlang'ich ta'lim yoshidagi bolalar faolligini oshirish" "Fan va texnologiya" 2016 yil

6.Djurayeva R, Tojiboyeva H.M, Nazirova G.M "Maktabgacha ta'lim yoshdagi bolalarga ta'lim-tarbiya berishning zamonaviy tendensiyalari" Toshkent 2015 yil.